

“Pochta xizmatida xavfsizlik va sifat” fani bo‘yicha yakuniy nazorat savollari

“Bilish” bosqichiga mansub savollar

1. “Korxonada xavfsizligi” atamasiga ta’rif bering va bu nima uchun muhim?
2. Pochta aloqasida yuborish taqiqlangan jo‘natmalarga nimalar kiradi?
3. Pochta xizmatlari sifatini nazorat qilishda amal qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar nimalardan iborat?
4. “Nazoratli pochta jo‘natmasi” tushunchasi nimani anglatadi?
5. Pochta to‘lovining davlat belgilariga nimalar kiradi?
6. “Ko‘zdan kechirib nazorat qilish” tushunchasining ta’rifi.
7. Pochta xavfsizligi xizmati xodimlarining asosiy vazifalari.
8. Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiya tizimining pochta aloqasidagi ahamiyati.
9. Pochta aloqasi obyektlari xavfsizligini ta’minlashda qanday zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi?
10. Radiatsiyani o‘lchovchi asbob – dozimetrlarning asosiy vazifasi nima va qanday hollarda foydalaniladi?
11. Gaz analizatorining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
12. “Lyumo” vositasining asosiy vazifasi nima?
13. “Lyumograf” pochta aloqasida qanday hollarda foydalaniladi?
14. Pochta jo‘natmasi nima sababdan izolyatsiya qilinadi?
15. Metallodetektor qanday hollarda foydalaniladi?
16. Radioportlatgich qanday aniqlanadi?
17. Pochta kuzatuvchisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
18. Pochta tashiydigan avtomashina qanday jihozlanadi?
19. Pochta qopi nima va uning asosiy vazifasi nima?
20. Pochta almashinuvida qanday hollarda dalolatnoma tiziladi?

“Tushunish” bosqichiga mansub savollar

21. Pochta to‘lov belgilari nima sababdan soxtalashtiriladi?
22. Pochta obyektlari xavfsizligi deganda nima tushuniladi?
23. Profilaktik chora-tadbirlar nima sababdan amalga oshiriladi?
24. Xalqaro pochta xavfsizligi nimani qamrab oladi?
25. “Nazorat jo‘natmasi”ning maqsadi nima?
26. “Ko‘r-ko‘rona tekshiruv”ning mohiyati nimada?
27. Xavfli jo‘natmalar qanday aniqlanadi?
28. Binolar va inshootlar xavfsizligi talablari nimaga qaratilgan?
29. Videokuzatuv tizimining vazifasi nimadan iborat?
30. Pochta saqlanishini nazorat qilish deganda nima tushuniladi?
31. Xavfli jo‘natmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari qanday?

32. Vizual nazoratni amalga oshirish bosqichlarini yoritib bering?
33. Pochta kuzatuvchisining huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?
34. Pochta avtomashinasini xavfsizligi qanday ta'minlanadi?
35. Pochta operatori jo'natmalarni qabul qilayotganda nimalarga ahamiyat berishi kerak?
36. Axborot xavfsizligi ustunlarining mazmuni: maxfiylik, yaxlitlik, mavjudlik.
37. Korxonada xavfsizligi tizimini yaratishning umumiy maqsadi.
38. Tashish jarayonida kuzatuv nazoratining vazifasi nimadan iborat?
39. Pulsiz va pul bilan ishlashdagi xavfsizlik tushunchasi nimani anglatadi?
40. Pochta obyektlaridagi saqlash xonalar xavfsizligi talablarini yoritib bering.

“Amalda qo'llash” bosqichiga mansub savollar

41. Pul mablag'larini yo'qotishdan himoya qilish ogohlantiruvchi usullarni sanang.
42. Qalbaki pochta to'lov belgilari qanday aniqladi va ularning o'ziga xos belgilari.
43. Pochta jo'natmalarini texnik vositalar yordamida tekshirish bosqichlarini bayon qiling.
44. Qaysi hollarda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi?
45. Pochta jo'natmasidagi xavfli belgilarni sanang (kamida 5 ta).
46. Biologik yoki kimyoviy modda shubhasida xodim qanday amaliy choralarni ko'radi?
47. Radiaktiv modda shubhasida qaysi texnik vositalar qo'llaniladi?
48. Portlovchi qurilma maskirovkalari misollarini ayting.
49. Butunjahon pochta ittifoqining pochta xavfsizligi bo'yicha tavsiyalari.
50. Rentgen tasvirida metall qismlar qanday aniqlanadi?
51. Radioportlatgich aniqlanganda qanday xavfsizlik choralari ko'riladi?
52. Shubhali jo'natma aniqlanganda xabar berish tartibini bayon qiling.
53. Shubhali jo'natmani ajratish tartibi qanday?
54. Favqulodda biologik/kimyoviy vaziyatda kimga va qanday xabar beriladi?
55. Pochta xavfsizligi nazorat punktlari qanday jihozlanadi?
56. Metallodetektor bilan nazorat jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsating.
57. Jo'natmalarni saqlashga qo'yiladigan asosiy talablar.
58. Pochta aloqasi obyektlari xavfsizligi qanday ta'minlanadi?
59. Plomba buzilganda xodimlar qanday amaliy harakat qiladi?
60. Tashishda pochta jo'natmalari butligini ta'minlash uchun talablar nimalardan iborat?

“Tahlil” bosqichiga mansub savollar

61. Qalbakilashtirilgan pochta to'lovi belgilarining alomatlarini batafsil tahlil qiling.
62. Xavf toifalari: fizik, texnik, inson, axborot xavflari farqlarini izohlang.

63. Ko'p qatlamli mudofaa yondashuvining samaradorligini baholang.
64. Pochta saqlanishining axborot va jismoniy xavfsizlikdagi o'rnini tahlil qiling.
65. Tashish jarayonidagi xavf-xatarlarni misollar bilan tahlil qiling.
66. Turli transportlarda pochta kuzatuv farqlarini tahlil qiling.
67. Kuzatuvchi aybi bilan jo'natma yo'qolsa qanday huquqiy javobgarlik yuzaga keladi?
68. Pochta xizmatlari sifatini baholash mezonlarini tahlil qiling.
69. Davlat nazorati shakllarining farqlarini (rejali, rejasiz, monitoring) tahlil qiling.
70. Ish sifati buzilishiga olib keluvchi omillarni tahlil qiling.
71. Pochta aloqa xizmatlari sifati va tovar sifati farqlarini tahlil qiling.
72. Qalbakilashtirishga qarshi tizimlarning samaradorligini tahlil qiling.
73. Pochta xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha O'zbekiston va xalqaro standartlarni taqqoslang.
74. KPI ko'rsatkichlarining pochta barqarorligiga ta'sirini tahlil qiling.
75. Risk boshqaruvi bosqichlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qiling.
76. Plombalash tizimining zaif va kuchli tomonlarini tahlil qiling.
77. Kuzatuv nazorati tizimining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiling.
78. Xatarlarni baholashda texnik vositalarning roli qanday? Tahlil qiling.
79. Pochta obyektlarida xavfsizlik infratuzilmasining o'zaro bog'lanishini tahlil qiling.
80. Sifat nazoratidagi muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qiling.

“Sintez va xulosa” bosqichiga mansub savollar

81. Xavfni baholashning qanday metodlaridan foydalaniladi?
82. Pochta xavfsizligini oshirish bo'yicha qanday kompleks choralar ko'riladi?
83. Xavfli jo'natmalarni aniqlash tizimini yaxshilash bo'yicha taklif bering.
84. Skrining jarayonining takomillashtirilgan modelini ishlab chiqing.
85. Pochta transporti xavfsizligini oshirish bo'yicha tavsiyalar bering.
86. Pochta obyektlari infratuzilmasi bo'yicha yaxlit xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha taklif bering.
87. Kuzatuv nazoratini optimallashtirish bo'yicha yechim taklif qiling.
88. Sifat nazoratini kuchaytirish uchun yangi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha taklif bering.
89. Favqulodda vaziyatlarda pochta tizimi barqarorligini oshirish bo'yicha takliflar bering.
90. Qalbakilashtirilgan to'lov belgilariga qarshi himoya mexanizmlarini yaxshilash bo'yicha taklif ishlab chiqing.
91. Pochta qoplari va konteynerlar xavfsizligini oshirish bo'yicha choralarni taklif qiling.

92. Risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha konseptual yechim ishlab chiqing.
93. Axborot xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha taklif bering.
94. Xavfli jo'natmalarni aniqlashning zamonaviy usullarini ayting.
95. Xodimlarni pochta xavfsizligi bo'yicha malakasini oshirish bo'yicha takliflar bering.
96. Sifat nazoratida aniqlangan muammolarni yaxshilash takliflar ishlab chiqing.
97. Zanjir bo'ylab xavfsizlik uzluksizligini ta'minlash uchun yagona boshqaruv modeli taklif qiling.
98. Texnik tekshiruv vositalarini yangilash bo'yicha strategik reja tuzing.
99. Pochta tashkilotining xavfsizlik siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bering.
100. Pochta xizmatlari samaradorligini oshiruvchi integratsiyalashgan xavfsizlik tizimini loyihalang.

Yakuniy nazorat imtihoni biletida 5 ta savol (har bir darajaga mansub bittadan) beriladi. Har bir savolning javobi 10 ballik mezonda baholanadi. Jami 50 ball.

**Raqamli texnologiyalar
konvergentsiyasi kafedrası
dotsent v.b.**

R.F.Xudoyberdiyev